OLIY TA’LIM TIZIMIDA OILAVIY SHIFOKORLARNI MASOFAVIY O‘QITISHDA PEDAGOGIK QO‘LLAB-QUVVATLASH MODELINI ISHLAB CHIQISH

Voxidov Dilshod Alikulovich
Samarqand davlat tibbiyot universiteti assistenti
Ne’matjonova Yulduz O’tkirjon qizi
Samarqand davlat pedagogika instituti, pedagogika kafedrasi p.f.f.d., v.b., prof.
Ibragimov A’lamjon Amrilloyevich
Samarqand xalqaro texnologiya universiteti, pedagogika fanlari doktori, dotsent
Voxidov Alikul Melitoshevich
Samarqand davlat tibbiyot universiteti, iqtisod fanlar nomzodi, katta o‘qituvchi

Annotatsiya. Ushbu maqolada oliy ta’lim tizimida oilaviy shifokorlarni masofaviy o‘qitish jarayonida pedagogik qo‘llab-quvvatlash modelini ishlab chiqish masalalari yoritilgan. Tadqiqotda masofaviy ta’lim sharoitida oilaviy shifokorlarning mavjud va yangi kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda pedagogik qo‘llab-quvvatlashning o‘rni, mazmuni va samaradorligi ilmiy-nazariy hamda amaliy jihatdan asoslab berilgan. Shuningdek, yagona axborot-ta’lim muhitiga asoslangan pedagogik qo‘llab-quvvatlash modelining tarkibiy komponentlari va ularning o‘zaro bog‘liqligi tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: masofaviy ta’lim, oilaviy shifokor, pedagogik qo‘llab-quvvatlash, kasbiy kompetensiya, axborot-ta’lim muhiti, elektron portal.

Аннотация. В данной статье рассматриваются вопросы разработки модели педагогической поддержки в процессе дистанционного обучения семейных врачей в системе высшего образования. Обоснована роль дистанционного обучения в развитии профессиональных компетенций семейных врачей, а также раскрыта значимость информационно-образовательной среды в обеспечении эффективности образовательного процесса. В статье представлен структурно-функциональный состав модели педагогической поддержки, включающий организационно-целевой, содержательный, критериальный, технологический и рефлексивно-результативный компоненты. Результаты исследования подтверждают эффективность внедрения разработанной модели в условиях дистанционного обучения.

Ключевые слова: дистанционное обучение, семейный врач, педагогическая поддержка, профессиональная компетентность, информационно-образовательная среда.

Annotation. This article covers the issues of developing a model of pedagogical support for family doctors in the process of distance learning in the higher

ISSN 3030-3907

education system.nnotation. This article covers the issues of developing a model of pedagogical support for family doctors in the process of distance learning in the higher education system. The study provides a scientific-theoretical and practical basis for the rolennotation. This article covers the issues of developing a model of pedagogical support for family doctors in the process of distance learning in the higher education system. The study provides a scientific-theoretical and practical basis for the role, content and effectiveness of pedagogical support in the development of existing and new professional competencies of family doctors in the conditions of distance education. Also, the structural components of the pedagogical support model based on the unified information and educational environment and their relationship have been analyzed.

Keywords: distance education, family doctor, pedagogical support, professional competence, information and educational environment, electronic portal.

KIRISH

Bugungi kunda oliy ta’lim tizimida sog‘liqni saqlash sohasi mutaxassislarini, xususan, oilaviy shifokorlarni tayyorlash va ularning kasbiy kompetensiyalarini uzluksiz rivojlantirib borish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi, tibbiy xizmatlar sifatiga bo‘lgan talabning ortib borishi hamda raqamli texnologiyalarning keng joriy etilishi ta’lim jarayonida yangi yondashuvlarni talab etmoqda.

Oilaviy shifokorlarni masofaviy o‘qitish jarayonida mavjud va yangi kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish samaradorligini ta’minlovchi asosiy shaxs - bu o‘qituvchi hisoblanadi. Shuning uchun masofaviy ta’lim texnologiyalaridan foydalanish jarayonida pedagog quyidagi vazifalarni hal qilishi zarur: malaka oshirish kurslarida tahsil olayotgan tinglovchilar uchun o‘quv-moddiy bazani yaratish; axborot-ta’lim muhiti orqali tinglovchilarni metodik jihatdan qo‘llab-quvvatlash; tinglovchilarda mavjud va yangi kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish; tinglovchilarda bilish faoliyatiga bo‘lgan motivatsiyani, shuningdek, mustaqil ta’limga ehtiyojni kuchaytirish; tinglovchilarning axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish va boshqalar [1].

Ushbu vazifalarning barchasini tinglovchilar bilan bevosita pedagogik muloqot bo‘lmagan sharoitda, ya’ni masofaviy ta’lim davomida to‘liq amalga oshirish murakkablashadi. Shu bilan birga, yagona va samarali ishlaydigan axborot-ta’lim muhitining mavjud emasligi jarayonni yanada qiyinlashtiradi [2,3].

Masofaviy ta’lim texnologiyalarining oliy ta’lim tizimiga joriy etilishi oilaviy shifokorlarning kasbiy tayyorgarligini oshirish, ularning bilim va ko‘nikmalarini zamonaviy talablar asosida rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar

ISSN 3030-3907

yaratadi. Biroq masofaviy ta’lim sharoitida pedagogik muloqotning cheklanganligi, tinglovchilarning mustaqil ta’limga tayyorgarlik darajasi va axborot texnologiyalaridan foydalanish malakasining turlicha bo‘lishi pedagogik qo‘llab-quvvatlashning samarali modelini ishlab chiqishni taqozo etadi.

Masofaviy ta’lim sharoitida pedagogik qo‘llab-quvvatlashning ahamiyati. Oilaviy shifokorlarni masofaviy o‘qitish jarayonida mavjud va yangi kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish samaradorligini ta’minlovchi asosiy shaxs bu - o‘qituvchidir. Masofaviy ta’lim texnologiyalaridan foydalanish jarayonida pedagog quyidagi vazifalarni bajarishi zarur: tinglovchilar uchun o‘quv-moddiy bazani yaratish; axborot-ta’lim muhiti orqali metodik qo‘llab-quvvatlashni amalga oshirish; kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish; mustaqil ta’limga bo‘lgan ehtiyoj va motivatsiyani kuchaytirish; axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirish.

Mazkur vazifalarni bevosita pedagogik muloqot cheklangan sharoitda amalga oshirish murakkab bo‘lib, yagona va samarali ishlaydigan axborot-ta’lim muhitining mavjud emasligi jarayonni yanada qiyinlashtiradi. Shu sababli, malaka oshirish kurslari tinglovchilarini tayyorlash va qayta tayyorlash uchun yagona axborot-ta’lim portalini yaratish zarurati yuzaga keladi.

Pedagogik qo‘llab-quvvatlash modelini ishlab chiqish. Tadqiqot doirasida oliy ta’lim muassasasida malaka oshirish kurslarida tahsil olayotgan oilaviy shifokorlarni masofaviy o‘qitishda pedagogik qo‘llab-quvvatlash modeli ishlab chiqildi. Mazkur model pedagogik qo‘llab-quvvatlash jarayonining maqsadlari, mazmuni, vositalari va natijalarini yagona tizim sifatida ifodalaydi.

Model besh asosiy komponentdan iborat:

Tashkiliy-maqsadli komponent - davlat, sohaviy va shaxsiy maqsadlarning o‘zaro muvozanatini ta’minlash, elektron portalni joriy etish, tinglovchilarning axborot texnologiyalaridan foydalanish malakasini oshirishni nazarda tutadi.

Mazmuniy komponent - oilaviy shifokorlarning bilim darajasini monitoring qilish, maqsadga yo‘naltirilgan pedagogik qo‘llab-quvvatlashni amalga oshirishni o‘z ichiga oladi.

Kriterial komponent - tinglovchilarning axborot texnologiyalaridan foydalanish ko‘nikmalarini motivatsion, kognitiv va operatsion – texnologik mezonlar asosida baholashni ta’minlaydi.

Texnologik komponent - o‘quv-metodik majmualar, elektron portal imkoniyatlari, didaktik materiallar va masofaviy ta’lim texnologiyalarini qamrab oladi.

ISSN 3030-3907

Refleksiv-natijaviy komponent - tinglovchilarning o‘quv faoliyati natijalarini tahlil qilish, ichki motivatsiyani shakllantirish va ta’lim samaradorligini baholashga xizmat qiladi.


Mazkur model masofaviy ta’lim sharoitida pedagogik qo‘llab-quvvatlashni tizimli, izchil va maqsadga yo‘naltirilgan holda amalga oshirish imkonini beradi [4,5].

Model samaradorligini baholash. Pedagogik qo‘llab-quvvatlash modelining samaradorligi “samaradorlik” tushunchasi asosida baholanadi. Samaradorlik maqsadga erishishda resurslardan oqilona foydalanish darajasini ifodalaydi va ikki darajada aniqlanadi: jarayon yakuniy natijalarining qo‘yilgan maqsadga muvofiqligi hamda amalga oshirilgan pedagogik operatsiyalar samaradorligi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, model joriy etilgach, malaka oshirish kurslari tinglovchilarining axborot texnologiyalaridan foydalanish ko‘nikmalari sezilarli darajada oshdi, ularning mustaqil ta’limga bo‘lgan motivatsiyasi kuchaydi hamda kasbiy kompetensiyalari rivojlandi. Bu esa ishlab chiqilgan modelning moslik va optimallik mezonlariga to‘liq javob berishini tasdiqlaydi.

Quyidagi rasmda oliy ta’lim muassasasida oilaviy shifokorlarni masofaviy o‘qitishda pedagogik qo‘llab-quvvatlash modeli (oilaviy shifokorlar misolida) keltirilgan**.**

ISSN 3030-3907



XULOSA

ISSN 3030-3907

Xulosa qilib aytganda, oliy ta’lim tizimida oilaviy shifokorlarni masofaviy o‘qitishda pedagogik qo‘llab-quvvatlash modelini ishlab chiqish va joriy etish ta’lim jarayonining samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ishlab chiqilgan model masofaviy ta’lim sharoitida pedagogik qo‘llab-quvvatlashning barcha bosqichlarini muvofiqlashtiradi, oilaviy shifokorlarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi hamda ularni zamonaviy axborot texnologiyalaridan samarali foydalanishga tayyorlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Айнштейн, В. Преподаватель и студент (практика общения) [Текст] / В. Айнштейн // Высшее образование в России. – 1998. – № 2. – С. 51–58.
2. Azizxo‘jayev N.N. Pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: TDPU, 2006.
3. Ishmuxamedov R.J. Ta’limda innovatsion texnologiyalar. – Toshkent, 2012.
4. Abduqodirov A.A. Masofaviy ta’lim nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent, 2018.
5. Shodmonov Q.X., Madaminov M., Inoyatov A.Sh. Tibbiyot ta’limida kompetensiyaviy yondashuv. – Toshkent, 2019.
6. Voxidov D.A., Ibragimov A.A., Voxidov A.M. Oilaviy shifokor mutaxassislarning malakasini oshirish tizimida samarali masofadan o‘qitishning pedagogik shartlari. Kasb-hunar ta’limi Ilmiy-uslubiy, amaliy, ma’rifiy jurnal, 2024-yil, 8-son.Toshkent. 85-89 bet.
7. Voxidov D.A., Ibragimov A.A., Voxidov A.M. Ta’lim jarayonida oilaviy shifokor mutaxassislarni masofadan o‘qitishni pedagogik qo‘llab-quvvatlashning nazariy asoslari. Kasb-hunar ta’limi Ilmiy-uslubiy, amaliy, ma’rifiy jurnal, 2024-yil, 12-son.Toshkent. 118-124 bet.

ISSN 3030-3907